Financial and Economic Sustainability
FINECS ISSN-2181-1636 Vol. 6, Issue 1, Jan, 2026
https://finecs.kiut.uz



СУҒУРТА СОҲАСИНИНГ РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ

Хайитов Нодирбек Узокович,
"Ўзбекинвест" экспорт-импорт суғурта компанияси" акциядорлик жамияти
Навоий вилоят филиали Раҳбарият директори

https://doi.org/10.5281/zenodo.23876031

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorida raqamli transformatsiya jarayonlari, ularning biznes jarayonlari samaradorligiga, risklarni boshqarish sifatiga hamda mijozlar tajribasiga ta’siri tizimli tahlil qilingan. Jahon banki, PwC, McKinsey kabi xalqaro manbalar hamda “O‘zbekinvest” EISK AJning 2020–2024-yillardagi amaliy ko‘rsatkichlari asosida raqamlashtirishning sug‘urta mukofotlari, zarar ko‘rsatkichlari, raqamli polislar ulushi va hududlar kesimidagi risk profiliga ta’siri baholangan. Tadqiqotda elektron polislar, raqamli savdo kanallari, “Sug‘urta Bozor” marketpleysi, Face ID va sun’iy intellekt asosidagi Talys.SDE tizimining joriy etilishi natijasida sug‘urta mahsulotlari qamrovining kengayishi, hududlar bo‘yicha loss ratio va retention ratio ko‘rsatkichlarida vujudga kelgan nomutanosibliklar aniqlangan. Muallif tarif siyosatini hududlar bo‘yicha differensiallashtirish, anderraytingni chuqurlashtirish, antifrod mexanizmlarini kuchaytirish va qayta sug‘urta vositalaridan samarali foydalanish orqali raqamli transformatsiya sharoitida sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqqan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, sug‘urta bozori, elektron polis, loss ratio, retention ratio, qayta sug‘urta, antifrod, “O‘zbekinvest”, “Sug‘urta Bozor” marketpleysi, sun’iy intellekt.

Kirish

So‘nggi yillarda global moliya bozorlarida raqamli transformatsiya sug‘urta sektorining raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi va mijozlar uchun qulayligini ta’minlovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Jahon banki, PwC, McKinsey kabi xalqaro tashkilotlar tadqiqotlari sug‘urta sohasida sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili, blokcheyn va onlayn-platformalar asosida yangi biznes modellarga o‘tish jarayoni ketayotganini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida moliya bozorlarini, jumladan sug‘urta sohasini raqamlashtirish ustuvor yo‘nalish etib belgilangan bo‘lib, bu jarayon sug‘urta mukofotlari yig‘imini oshirish, formal qamrovni kengaytirish, hududlar kesimida risklarni boshqarish va aholi hamda biznes uchun sug‘urta xizmatlarining dostupnostini yaxshilashni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, “O‘zbekinvest” EISK AJ misolida 2020–2024-yillarda raqamli polislar hajmi, elektron savdo ulushi, hududlar bo‘yicha zarar va retensiya koeffitsientlari dinamikasini tahlil qilish, “Sug‘urta Bozor” marketpleysi, Face ID va Talys.SDE kabi raqamli yechimlarning amaliy samaradorligini baholash hamda raqamli transformatsiya sharoitida tarif siyosati, anderrayting va qayta sug‘urtani takomillashtirish yo‘nalishlarini

aniqlash mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi. Shu asosda maqolada sug‘urta bozorini raqamlashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan imkoniyatlar va xatarlar kompleks tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida raqamli sug‘urta ekotizimini barqaror rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Adabiyotlar tahlili

Sug‘urta sohasining raqamli transformatsiyasi iqtisodiy modernizatsiyaning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib, ish jarayonlarini samarali qilish, mijozlar bilan o‘zaro aloqani yaxshilash va xavfni boshqarish strategiyalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Global konsalting kompaniyalari, tadqiqot tashkilotlari va ilmiy olimlar tomonidan olib

borilgan turli tadqiqotlar sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalarni qabul qilishning ahamiyati va strategiyalari haqida qimmatli ma’lumotlar taqdim etmoqda.

Jahon banki raqamlilashtirishning moliyaviy inklyuziyani rag‘batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi (Jahon banki, 2020). Rivojlanayotgan bozorlarda raqamli sug‘urta yechimlari oldinga bora olmagan aholi qatlamlariga yetib borish, ularga xavfni boshqarish mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Jahon banki (2020) ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli platformalar sug‘urta kompaniyalariga jarayonlarni soddalashtirish va ishlash xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi, bu esa kam daromadli shaxslar va kichik biznes uchun arzonroq siyosatlarni taklif qilishga yordam beradi. Shuningdek, tashkilot mobil texnologiyalarning rivojlanayotgan iqtisodiyotlardagi zaif aholi qatlamlarining xavfni boshqarish ehtiyojlarini qondirishdagi rolini ta’kidlaydi. Raqamli yondashuv nafaqat sug‘urta xizmatlari ko‘lamini kengaytiradi, balki keng ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi (Jahon banki, 2020).

PwC kompaniyasi sug‘urta sohasida raqamli transformatsiyaning katta o‘zgarishlar olib kelishi mumkin bo‘lgan asosiy yo‘nalishlarini aniqlaydi. PwCning Global InsurTech hisobotida (PwC, 2019) sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlarni tahlil qilish va blokcheyn kabi raqamli vositalar sug‘urta jarayonlarini yaxshilash va shaffoflikni oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. PwC (2019) hisobotiga ko‘ra, avtomatlashtirish va mijozlarga individual yondashuv raqobatda ustunlikka erishishda yordam beradi. Shunday qilib, raqamli platformalardan foydalanish orqali sug‘urta kompaniyalari mijozlar qoniqishini oshirishi va ularning sadoqatini ta’minlashi mumkin. Hisobotda raqamlilashtirish orqali sug‘urta kompaniyalari ish jarayonlarini samarali qilishi, talablarga tez javob berish imkoniyatini yaratishi va mahsulotlarni har bir mijoz profiliga muvofiqlashtirishi mumkinligi qayd etilgan. Bu esa bozor o‘sishiga turtki bo‘ladi (PwC, 2019).

McKinsey & Company sug‘urta sohasida raqamli transformatsiyaga kompleks yondashuv va texnologiyalarni integratsiya qilishning zarurligini ta’kidlaydi. McKinseyning raqamli sug‘urta haqidagi hisobotiga ko‘ra, sug‘urta kompaniyalari o‘z qiymat zanjirining barcha bosqichlarida – mijozlarni jalb qilishdan to talablarni ko‘rib chiqishgacha – raqamli transformatsiyani joriy etganda katta samaradorlik va mijozlar bilan aloqalardagi o‘zgarishlarga erishadi (McKinsey & Company, 2021). McKinsey (2021) sug‘urta sohasidagi raqamli transformatsiyaning uchta asosiy ustunini aniqlaydi: ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish, mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli platformalar va kiberxavfsizlik. Ularning tadqiqotlari kiberxavfsizlikning ahamiyati ortib borayotganini, ayniqsa, ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi va kibertahdidlarning ko‘payishi bilan bog‘liq holda ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. McKinsey ilg‘or tahlil vositalari va sun’iy intellektdan foydalanib, xavflarni baholash va baho berish aniqligini oshirish mumkinligini ham ta’kidlaydi, bu esa sug‘urta kompaniyalariga mijozlar uchun raqobatbardosh narxlar va innovatsion mahsulotlar taklif qilish imkonini beradi (McKinsey & Company, 2021).

Olimlar raqamli transformatsiyaning sug‘urta sohasidagi ta’sirini turli jihatlardan o‘rganib, ish samaradorligi, mijozlar tajribasi va texnologik innovatsiyalarning ahamiyatini ta’kidlaydilar. Jons va Braun (2020) sug‘urta kompaniyalarining sun’iy intellekt va mashinalarga o‘rganish texnologiyalarini qabul qilishi orqali mijozlarning ma’lumotlarini yaxshiroq tahlil qilish va ularning ehtiyojlariga mos keladigan individual sug‘urta siyosatlarini ishlab chiqishini ta’kidlaydilar. Shuningdek, Smit (2021) o‘z tadqiqotida raqamli transformatsiyaning talablarni boshqarish jarayonlarini yaxshilashdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Smitning tadqiqotlari blokcheyn texnologiyasining talablarni tasdiqlash jarayonini tezlashtirish va firibgarlikni kamaytirishga yordam beradigan shaffof

va o‘zgartirib bo‘lmas tranzaksiya tarixi yaratish orqali sug‘urtachi-mijoz munosabatlarida ishonchni oshirishini ochib beradi.

Qo‘shimcha tadqiqotlar raqamli transformatsiyaning qonunchilik va axloqiy muammolarini ham o‘rganadi. Masalan, Chjan (2022) sun’iy intellekt va katta ma’lumotlardan foydalanishda ma’lumotlar maxfiyligi bilan bog‘liq muammolarni hal etish uchun qonunchilik doiralari yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Chjan raqamli vositalar ko‘plab afzalliklarni taqdim etgan bo‘lsa-da, ular iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va sug‘urta bozorida adolatli amaliyotlarni ta’minlash uchun kompleks qonunchilik nazoratini talab qilishini aytadi.

Sug‘urta sohasida ish jarayonlarining raqamlilashtirilishi samaradorlik, mijozlar qoniqishi va xavflarni boshqarishda sezilarli ilgarilashga yo‘l ochmoqda. Blokcheyn, sun’iy intellekt va simsiz aloqa texnologiyalari sug‘urta sohasida an’anaviy amaliyotlarni o‘zgartirib, avtomatlashtirish, ma’lumot xavfsizligini yaxshilash va real vaqtda o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish imkoniyatini bermoqda. Masalan, hujjatlarning aylanishi va talablarni boshqarishda blokcheyndan foydalanish shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va talablarni tasdiqlashda muhim bo‘lgan shaffof va o‘zgartirib bo‘lmas tranzaksiya tarixini yaratish imkonini beradi. Shuningdek, telematikalar va sog‘liq uchun sensorlar sug‘urtalovchilarga mijozlarning xavf profillarini aniqroq baholash imkonini berib, ularga individual ehtiyojlarga mos keladigan prema va xizmatlar taklif qilishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda moliya bozorlarini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning ajralmas qismi sifatida sug‘urta kompaniyalari faoliyatini raqamlashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Chunki sug‘urta sohasi o‘z tabiatiga ko‘ra katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, tezkor hisob-kitoblar amalga oshirish va mijozlarga qulay xizmat ko‘rsatishni talab qiladi. Raqamli texnologiyalar esa bu jarayonlarni samarali boshqarish, risklarni aniqlash va kamaytirish, shuningdek, sug‘urta xizmatlarining ommalashuvini jadallashtirish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda sug‘urta kompaniyalarida onlayn polislarni rasmiylashtirish, elektron arxiv va CRM tizimlari, mobil ilovalar va to‘lov tizimlari bilan integratsiyalashuv bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu tendensiya xalqaro tajriba bilan hamohang bo‘lib, sug‘urta xizmatlarining shaffofligini ta’minlash va mijozlar uchun xizmatlarni yanada qulay qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirishning joriy holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash sug‘urta bozorining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

2022-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, respublikada jismoniy shaxslar sug‘urtasi bo‘yicha faoliyat yuritayotgan yetakchi kompaniyalar o‘rtasida sug‘urta mukofotlari, majburiyatlari va to‘lovlari miqdorida sezilarli tafovutlar kuzatiladi. Masalan, “Gross sug‘urta kompaniyasi” AJ eng katta mukofot (60,4 mlrd so‘m) va majburiyat (75 040,3 mlrd so‘m) hajmiga ega bo‘lib, bozordagi yetakchilik mavqeini namoyon etgan, sug‘urta to‘lovlari ham eng yuqori darajada (13,2 mlrd so‘m) qayd etilgan. Shunga yaqin ko‘rsatkichlar “O‘zbekinvest” EISK AJ (63,4 mlrd so‘m mukofot, 45 590,1 mlrd so‘m majburiyat va 18,6 mlrd so‘m to‘lov) hamda “O‘zagrosug‘urta” AJda (46,1 mlrd so‘m mukofot, 44 990,4 mlrd so‘m majburiyat) kuzatiladi.


1-jadval.

Respublikada yetakchi sug’urta kompaniyalari kesimida jismoniy shaxslar sug’urtasi bo’yicha tahliliy ma’lumotlari tavsifi, 2022-yil (mlrd. so’mda)[1]

[1] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.

Sug'urta kompaniyalari	Sug'urta mukofoti	Sug'urta majburiyatlari	Sug'urta to'lovlari
"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	14,9	4 733,1	1,3
"Alfa invest sug'urta kompaniyasi" AJ	16,9	1 400,1	1,8
"Apex insurance" AJ	17,8	1 326,9	9,1
"Euroasia insurance" AJ QK	22,3	11 247,1	2,9
"Alskom sug`urta kompaniyasi" AJ	30,7	2 608,1	4,8
"Kapital sug'urta" AJ	32,6	3 415,3	2,6
"Kafil sug'urta" AJ	38,7	3 199,3	0,8
"O'zagrosug'urta" AJ	46,1	44 990,4	2,4
"Gross sug'urta kompaniyasi" AJ	60,4	75 040,3	13,2
"O'zbekinvest" EISK AJ	63,4	45 590,1	18,6

Aksincha, kichikroq kompaniyalar – "Kafolat", "Alfa Invest", "Apex Insurance" kabi sub'yektlar mukofotlar hajmi bo'yicha pastroq natija ko'rsatgan, majburiyatlar nisbatan kichik, ammo to'lovlarning mukofotga nisbati ba'zi hollarda yuqoriroq. Bu tahlil sug'urta bozorida kuchli konsentratsiya mavjudligini, yirik kompaniyalar majburiyatlarning katta qismini zimmasiga olishini va bozorni yetaklab borishini, kichik kompaniyalar esa asosan tor segmentlarda faoliyat yuritishini ko'rsatadi.



1-rasm. Jismoniy shaxslar bilan tuzilgan sug'urta shartnomalari soni, tanlangan Top 10ta sug'urta kompaniyalari kesimida (dona)[2]

Sug'urta sohasini raqamlashtirishda marketpleys modeli alohida e'tibor qaratiladigan yo'nalishlardan biridir. Marketpleys modeli — bu yagona onlayn platforma bo'lib, unda turli sug'urta kompaniyalari o'z mahsulotlarini (polislar, xizmat paketlari) taqdim etadi va mijozlar ularni qiyoslab, o'z ehtiyojiga mosini tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu model bozorda raqobatni kuchaytiradi, narx va xizmatlarning shaffofligini ta'minlaydi hamda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sug'urta mahsulotlariga kirishni sezilarli darajada soddalashtiradi.

Marketpleysni samarali ishlashida quyidagi raqamli texnologiyalar asosiy rol o'ynaydi:

- Big Data va analitik tizimlar – mijozlarning xatti-harakatlari, to'lov intizomi va risk darajalarini tahlil qilib, ularga mos individual polislarni taklif etadi.

[2] O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


• Sun’iy intellekt (AI) va mashinaviy o‘qitish – da’vo jarayonlarini tezlashtirish, firibgarlikni aniqlash va mijozlar bilan avtomatlashtirilgan muloqotni tashkil qilishda qo‘llaniladi (chatbotlar, virtual maslahatchilar).

• Blokcheyn texnologiyalari – shartnomalarni smart-kontraktlar asosida avtomatik amalga oshirish, sug‘urta hodisalari va to‘lovlar bo‘yicha shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi.

• Mobil ilovalar va fintech integratsiyasi – mijozlarga polis sotib olish, onlayn to‘lov qilish va da’vo arizasini topshirishni qulaylashtiradi.

• Cloud texnologiyalar – sug‘urta kompaniyalari va marketpleys o‘rtasida ma’lumot almashinuvini tezkor va xavfsiz tashkil etadi.

Bu yerda iste’molchilar turli sug‘urta mahsulotlarini, ularning shartlari va narxlarini solishtirishlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, bir nechta sug‘urta kompaniyalari veb-saytlariga alohida tashrif buyurishdan ko‘ra ancha qulayroqdir. Shu orqali mijozlar o‘z ehtiyojlariga mos polisni tanlashda vaqt va xarajatlarini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.



2-rasm. O‘zbekistonning yetakchi sug‘urta kompaniyalari tomonidan raqamlashtirilgan jismoniy shaxslar sug‘urta mahsulotlari soni, 2023[3]

Biroq, sug‘urta kompaniyalari uchun marketing platformalari – ya’ni marketpleyslar – yanada kuchli raqobat muhiti yaratadi. Chunki ular yagona bozor maydonida xizmat ko‘rsatishga majbur bo‘ladilar va bu jarayonda narx siyosatini shaffof olib borish hamda xizmat sifatini oshirishga ehtiyoj kuchayadi. Shu bilan birga, marketpleyslar sug‘urta kompaniyalarining xizmatlarini standartlashtirishga intiladi, chunki ular universal va ko‘proq mijozlarga moslashtirilgan polislarni taqdim etishga moyil bo‘ladi. Bu esa ayrim hollarda xizmatlarning yuqori darajada shaxsiylashtirilishini kamaytiradi. Sababi, marketpleys platformalari savdo hajmidan ma’lum foizni vositachilik sifatida olishadi va bu ularni soddaroq, keng auditoriyaga mo‘ljallangan mahsulotlarni ko‘proq ilgari surishga undaydi.

O‘zbekistonda sug‘urta sohasini raqamlashtirish doirasida “Sug‘urta Bozor” nomli marketpleys yaratilgan bo‘lib, unda hozirda o‘n ga yaqin yetakchi sug‘urta kompaniyalari faoliyat olib bormoqda. Mazkur platforma jismoniy va yuridik shaxslarga turli sug‘urta mahsulotlarini tezkor taqqoslash, onlayn shartnoma tuzish va to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, “Sug‘urta Bozor” mijozlar uchun sug‘urta

[3] O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

xizmatlarining shaffofligini ta’minlasa, kompaniyalar uchun raqobatbardoshlikni kuchaytiradi hamda bozorni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda muhim qadam bo‘lib xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda “O‘zbekinvest” AJ EISK tomonidan sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha sezilarli natijalarga erishilmoqda. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2021–2023-yillar davomida raqamli platformalar orqali sotilgan elektron polislar soni keskin oshib, 23 265 tadan 849 775 taga yetgan, ularning sug‘urta mukofoti hajmi esa 932,3 mln so‘mdan 39,9 mlrd so‘mga ko‘tarilgan. Bu 2022–2023-yillarda mos ravishda 276% va 286% o‘sish bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish segmentida ham dinamik o‘sish kuzatilib, polislar soni 6 040 tadan 21 717 taga, sug‘urta mukofotlari esa 321,3 mln so‘mdan 1,5 mlrd so‘mga oshgan (360% va 480% o‘sish). Natijada, raqamli savdolarning umumiy sug‘urta portfelidagi ulushi 2021-yilda deyarli 0% bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda mos ravishda 3–4% gacha yetdi. Bu jarayon kompaniyaning raqamli texnologiyalardan foydalanishi orqali bozor talabiga moslashayotganini, xizmatlar qamrovini kengaytirayotganini va xalqaro tendensiyalarga yaqinlashayotganini yaqqol ko‘rsatadi.

2-jadval.

“O‘zbekinvest” AJ EISK sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish ko’rsatkichlari tahlili[4]

	2021-yil		**2022-yil**		**2023-yil**		**2023/2022ga nisbatan o'sish, %da**	
	soni	sug'urta mukofoti, ming so'mda	soni	sug'urta mukofoti, ming so'mda	soni	sug'urta mukofoti, ming so'mda	soni	sug'urta mukofoti, ming so'mda
Raqamli platformalar orqali sotilgan elektron polislarni	23 265	932 311	308 307	13 933 584	849 775	39 901 278	276 %	286%
shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri sotish	1	56	6 040	321 307	21 717	1 541 463	360 %	480%
Ulush, % da	0%	0%	2%	2%	3%	4%		

“O‘zbekinvest” AJ EISK ma’lumotlariga ko‘ra, 2021–2024-yillar davomida umumiy sug‘urta bo‘yicha jismoniy shaxslardan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari 38,4 % ga oshib, 51 346 mln so‘mdan 71 050 mln so‘mga yetgan. Bu aholi tomonidan sug‘urtaga murojaat qilish darajasi ortganini, sug‘urta himoyasiga bo‘lgan ehtiyoj kuchayganini ko‘rsatadi.

3-jadval.

“O‘zbekinvest” AJ EISK umumiy sug‘urta sohasi bo’yicha jami jismoniy shaxslardan yig'ilgan sug'urta mukofoti, mln so’m[5]

	2021	2022	2023	2024	2024/2021
Umumiy sug‘urta tarmog‘idagi sug‘urta	51 346	63 410	104 757	71 050	+38,4 %

[4] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.
[5] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.

tashkilotlari, shu jumladan:					
majburiy sug‘urta	27 549	28 859	33 405	47 698	+73,1 %
ulushi	53,7 %	45,5 %	31,9 %	67,1 %	-
ixtiyoriy sug‘urta	23 797	34 551	71 352	23 352	–1,9 %
ulushi	46,3 %	54,5 %	68,1 %	32,9 %	-
	723 373	686 896	841 617	1 013 534	+40.1%

Biroq 2023-yildagi yuqori ko‘rsatkichlardan keyin 2024-yilda ixtiyoriy sug‘urtaning keskin kamayishi aholining daromadlari, iste’mol xatti-harakati va sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan ishonch bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, ixtiyoriy sug‘urta ulushining 68,1 % dan 32,9 % gacha tushib ketishi aholining moliyaviy imkoniyatlari qisqarishi yoki bu yo‘nalishda kompaniyalar yetarli darajada innovatsion mahsulotlarni taklif etmaganidan dalolat beradi.

4-jadval.

"O‘zbekinvest EISK" AJ jismoniy shaxslar sug'urtasi bo'yicha zararlilik koeffisenti tahlili[6]

	2020	2021	2022	2023
Zararlilik koeffisenti	72%	67%	29%	19%
sug‘urta majburiyatlari	39 254 932	45 590 153	64 529 405	67 448 747

Kompaniya nuqtayi nazaridan esa majburiy sug‘urta segmentining keskin o‘sishi diqqatga sazovor. 2021–2024-yillarda majburiy sug‘urta mukofotlari 73,1 % ga ortib, 47 698 mln so‘mga yetgan va 2024-yilda umumiy hajmning 67,1 % ini tashkil qilgan. Shu bilan birga, ixtiyoriy sug‘urta segmentining qisqarishi kompaniyalar uchun yangi mahsulotlar ishlab chiqish, aholining talabini chuqur o‘rganish va marketing strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda va kompaniya tomonidan 2024 yil yakunida aholiga 11tadan 230taga raqamli sug’urta mahsulotlarini oshirishga erishildi. Jumladan, 2021–2024-yillar davomida raqamlashtirilgan sug‘urta mahsulotlari sonida keskin o‘sish kuzatildi: umumiy sug‘urta tarmog‘ida 5 tadan 230 tagacha ko‘payib, 46 martaga oshdi.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining raqamli yetakchisi sifatida “O‘zbekinvest” kompaniyasi biznes- jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha bir qator muhim loyihalarni amalga oshirdi:

- kompaniya zamonaviy raqamli texnologiya – Face ID ni barcha axborot tizimlari va mobil ilovalarga joriy qildi;
- “O‘zbekinvest” O‘zbekiston sug‘urta bozorida birinchi bo‘lib 15 turdagi sug‘urta polislarini to‘liq elektron formatga o‘tkazdi;
- 2024-yil yanvar oyidan boshlab, xalqaro IT-hamkori GlowByte ko‘magida sun'iy intellekt asosidagi Talys.SDE innovatsion tizimini ishga tushirdi;
- Bugungi kunda bu tizim kompaniyaning umumiy mijozlar bazasidagi polislarning 87 foizi ma'lumotlarini qayta ishlash imkonini beradi;
- Onlayn-savdo platformalari: insurance.uz internet-do‘koni, mijozlar uchun mobil ilova va sug‘urta agentlari uchun mobil ilova ishlab chiqildi va joriy qilindi;

Ushbu platformalar orqali 2023 yil natijalariga ko‘ra 849 080 dona onlayn-polis sotildi, bu sotilgan polislar umumiy ulushining 77% ini tashkil etdi, 2022 yilga nisbatan 275 foizga oshdi.

[6] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.

5-jadval.

“O‘zbekinvest” AJ EISK raqamlashtirilgan sug'urta mahsulotlari, sug'urta sohalari kesimida, dona[7]

	2021	2022	2023	2024	O’zgarish (2024/2021) marta
Umumiy sug‘urta tarmog‘idagi sug‘urta mahsulotlari, shu jumladan:	5	9	11	230	46
majburiy sug‘urta	1	1	1	3	3
ixtiyoriy sug‘urta	4	8	10	227	56,7

Bu jarayonda majburiy sug‘urta segmenti nisbatan sekin sur’atda rivojlanib, atigi 3 martaga ortgan bo‘lsa, ixtiyoriy sug‘urta mahsulotlari soni 4 tadan 227 tagacha yetib, 56,7 martaga ko‘paydi. Bu holat raqamlashtirish jarayonining asosan ixtiyoriy sug‘urta sohasida tez sur’atlar bilan amalga oshirilayotganini va aholi hamda biznes ehtiyojlariga moslashgan yangi mahsulotlarning jadal joriy etilayotganini ko‘rsatadi.

2021–2024-yillar mobaynida “O‘zbekinvest” AJ EISK ma’lumotlariga ko‘ra, elektron polislar bo‘yicha yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari va amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlari hajmida keskin o‘sish kuzatildi. Agar 2021-yilda respublika miqyosida mukofotlar atigi 931 mln so‘m, to‘lovlar esa 76 mln so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib mukofotlar hajmi 1,27 trln so‘mga, to‘lovlar esa 156,8 mlrd so‘mga yetgan. Bu jarayon sug‘urta bozorida raqamlashtirishning jadal sur’atlarda joriy etilayotganini va elektron polislarning ahamiyati oshib borayotganini ko‘rsatadi.

6-jadval.

“O‘zbekinvest” AJ EISK hududlar kesimida elektron polislarni sotishdan kelib tushgan sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlari, mln so’m[8]

	2021		**2022**		**2023**		**2024**	
	Sug'urta mukofoti	**Sug'urta To'lovi**	**Sug'urta mukofoti**	**Sug'urta To'lovi**	**Sug'urta mukofoti**	**Sug'urta To'lovi**	**Sug'urta mukofoti**	**Sug'urta To'lovi**
Respublika jami	**931**	**76**	**13 930**	**1 974**	**39 901**	**10 471**	**1 270 570**	**156 775**
Qoraqalpo-g‘iston Respublikasi	26	-	730	142	1 680	1 232	7 026	2 848
Andijon	50	-	1 321	145	3 794	980	11 980	2 722
Buxoro	11	-	1 990	177	6 131	1 598	19 351	9 137
Jizzax	26	-	463	17	1 387	282	5 042	2 263
Qashqadaryo	5	-	497	4	2 803	334	9 426	3 505
Navoiy	27	-	1 046	72	2 382	486	7 681	1 758
Namangan	72	-	1 690	142	3 402	651	9 746	2 215
Samarqand	69	-	1 984	66	4 514	852	18 505	4 171
Surxondaryo	5	-	685	27	1 779	185	9 458	1 666
Sirdaryo	4	-	203	45	666	217	4 350	2 386
Toshkent	6	-	131	13	730	375	25 031	3 326
Farg‘ona	52	-	1 045	119	4 022	514	12 389	3 194
Xorazm	19	-	598	14	2 501	401	11 351	2 599
Toshkent sh.	559	76	1 547	991	4 111	2 364	1 119 234	114 985

[7] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.
[8] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.

Hududlar kesimida Toshkent shahri eng katta ulushni egallab, mukofotlarning 88 % dan ortig‘ini taqdim etgan bo‘lsa, Sirdaryo, Buxoro va Qoraqalpog‘iston kabi hududlarda to‘lovlar ulushi yuqoriligi sababli zararsizlik ko‘rsatkichi respublika o‘rtacha darajasidan yuqori shakllangan. Shu bois, mukofotlarning tez o‘sishi sug‘urta qamrovini kengaytirgan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda yuqori to‘lov bosimi risklarni boshqarishni kuchaytirishni talab qilmoqda.

2021–2024-yillar davomida hududlar kesimida zararsizlik nisbati (Loss ratio) va retensiya darajasi (Retention ratio) bo‘yicha sezilarli tafovutlar kuzatilmoqda. Respublika miqyosida umumiy ko‘rsatkichlar mo‘‘tadil bo‘lsa-da (2021-yilda Loss ratio 8,2 %, 2024-yilda 12,3 %), hududlar kesimida risk konsentratsiyasi kuchli. Masalan, Sirdaryo viloyatida Loss ratio 2021-yilda 0 % bo‘lsa, 2024-yilda 54,9 % ga oshib ketgan va retensiya darajasi 100 % dan 45,1 % gacha tushib qolgan. Buxoro (47,2 %), Jizzax (44,9 %), Qoraqalpog‘iston (40,5 %) va Qashqadaryo (37,2 %) viloyatlarida ham zarar ko‘rsatkichlari keskin oshgan. Bu hududlar yuqori risk guruhiga kiritiladi, chunki sug‘urta kompaniyalari majburiyatlari ortib bormoqda, retensiya darajasi esa 50–60 % atrofida yoki undan past bo‘lib qolmoqda. Bu esa qayta sug‘urtaga tayanishni kuchaytiradi, tarif siyosatini qayta ko‘rib chiqish va antifrod mexanizmlarini joriy etishni talab qiladi.

7-jadval.

“O‘zbekinvest” AJ EISK 2021–2024-yillarda hududlar kesimida zararsizlik nisbati (%) va retensiya darajasi (%) ko’rsatkichlari tahlili[9]

	Zararsizlik nisbati (Loss ratio)					**Retensiya darajasi** (Retention ratio)				
Hudud	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**	O‘zgarish, 2024-2021	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**	O‘zgarish, 2024-2021
Respublika jami	8,2	14,2	26,2	12,3	+4,1	91,8	85,8	73,8	87,7	–4,1
Qoraqalpog‘iston	0,0	19,5	73,3	40,5	+40,5	100	80,5	26,7	59,5	–40,5
Andijon	0,0	11,0	25,8	22,7	+22,7	100	89,0	74,2	77,3	–22,7
Buxoro	0,0	8,9	26,1	47,2	+47,2	100	91,1	73,9	52,8	–47,2
Jizzax	0,0	3,7	20,3	44,9	+44,9	100	96,3	79,7	55,1	–44,9
Qashqadaryo	0,0	0,8	11,9	37,2	+37,2	100	99,2	88,1	62,8	–37,2
Navoiy	0,0	6,9	20,4	22,9	+22,9	100	93,1	79,6	77,1	–22,9
Namangan	0,0	8,4	19,1	22,7	+22,7	100	91,6	80,9	77,3	–22,7
Samarqand	0,0	3,3	18,9	22,5	+22,5	100	96,7	81,1	77,5	–22,5
Surxondaryo	0,0	3,9	10,4	17,6	+17,6	100	96,1	89,6	82,4	–17,6
Sirdaryo	0,0	22,2	32,6	54,9	+54,9	100	77,8	67,4	45,1	–54,9
Toshkent vil.	0,0	9,9	51,4	13,3	+13,3	100	90,1	48,6	86,7	–13,3
Farg‘ona	0,0	11,4	12,8	25,8	+25,8	100	88,6	87,2	74,2	–25,8
Xorazm	0,0	2,3	16,0	22,9	+22,9	100	97,7	84,0	77,1	–22,9
Toshkent sh.	13,6	64,1	57,5	10,3	–3,3	86,4	35,9	42,5	89,7	+3,3

O‘rta risk guruhiga kiruvchi hududlar — Andijon (22,7 %), Namangan (22,7 %), Navoiy (22,9 %), Xorazm (22,9 %), Samarqand (22,5 %), Farg‘ona (25,8 %) viloyatlari. Bu hududlarda zarar ko‘rsatkichlari 20–26 % diapazonida shakllangan bo‘lib, xalqaro standartlarga (optimal diapazon 30–40 %) nisbatan pastroq. Retensiya darajasi ham 74–78 % oralig‘ida bo‘lib, bu hududlarda sug‘urta kompaniyalari risklarning katta qismini o‘z zimmasida qoldirmoqda. Bu, bir tomondan, daromadlilikni oshiradi, ammo yirik zarar

[9] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.

hodisalari sodir bo‘lsa, moliyaviy barqarorlikka xavf tug‘diradi. Shu bois, bu hududlarda balanslashgan qayta sug‘urta siyosati, diversifikatsiyalangan portfel va risklarni geografik taqsimlash mexanizmlarini kuchaytirish muhim.

Past risk guruhiga kiruvchi hududlar — Surxondaryo (17,6 %), Toshkent viloyati (13,3 %), Toshkent sh. (10,3 %) va qisman Respublika jami (12,3 %). Bu hududlarda zarar ko‘rsatkichlari past bo‘lib, retensiya darajasi yuqori (82–90 %). Ayniqsa, Toshkent shahri 2021-yilda yuqori zarar (13,6 %) ko‘rsatgan bo‘lsa-da, 2024-yilda uni 10,3 % gacha pasaytirib, retensiyani 89,7 % ga oshirgan. Bu hududlar rentabel hududlar sifatida ajralib turadi va kompaniya daromadliligini ta’minlashda asosiy manba hisoblanadi. Shu bilan birga, yuqori konsentratsiya tufayli Toshkent shahri va viloyati kabi markazlarda bozordagi monopoliyalashuv xavfi mavjud bo‘lib, boshqa hududlarda bozor ulushi pastligi sug‘urta qamrovini kengaytirishni talab qiladi.

2021–2024-yillarda raqamlashtirilgan sug‘urta mukofotlari hajmi keskin oshgan bo‘lsa-da, hududlar kesimida barqarorlik nomutanosib. Yuqori risk hududlari (Sirdaryo, Buxoro, Jizzax, Qoraqalpog‘iston, Qashqadaryo)da zarar darajasi yuqori bo‘lib, risklarni qayta sug‘urtalash va tarif siyosatini kuchaytirish zarur. O‘rta risk hududlari (Andijon, Namangan, Navoiy, Samarqand, Farg‘ona, Xorazm)da diversifikatsiya va risklarni geografik taqsimlash muhim. Past risk hududlari (Toshkent sh., Toshkent vil., Surxondaryo) esa kompaniyalar uchun barqaror rentabellik manbai hisoblanadi, ammo ularning haddan ortiq ulushi hududiy muvozanatni buzmoqda. Shu bois, sug‘urta kompaniyalarining strategiyasi hududiy diversifikatsiyani kuchaytirish, yuqori riskli hududlarda risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va ixtiyoriy sug‘urta segmentini kengaytirishga qaratilishi kerak.

Xulosa.

1. Tarif siyosati qayta ko‘rib chiqilishi zarur, chunki ayrim hududlarda zararsizlik nisbati respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan sezilarli yuqori bo‘lib, bu kompaniyalar moliyaviy barqarorligiga xavf tug‘diradi. Risk darajasini hududlar bo‘yicha tabaqalashtirish, yuqori xavfli segmentlarda tariflarni ko‘tarish, past xavfli hududlarda esa rag‘batlantiruvchi stavkalar qo‘llash orqali sug‘urta mukofotlari real xavflarga moslashtirilishi lozim. Bu jarayon aktuariy modellar va sun’iy intellekt asosida dinamik narxlash mexanizmlarini joriy qilish bilan yanada samarali bo‘ladi.

2. Anderrayting siyosatini takomillashtirish sug‘urta kompaniyalari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki hozirgi sharoitda zararlar asosan noto‘g‘ri baholangan risklardan kelib chiqmoqda. Sug‘urtalanuvchilarning moliyaviy intizomi, kredit tarixi va hududiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan holda individual polislarni tasdiqlash jarayonini kuchaytirish zarur. Bu orqali sug‘urta kompaniyalari portfellarini yanada sifatli boshqarib, zararlarni kamaytirishi mumkin.

3. Antifrod mexanizmlarini kuchaytirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Ayrim hududlarda sug‘urta to‘lovlari yuqori darajaga yetgani soxta sug‘urta hodisalari va asossiz da’volar xavfini oshiradi. Shuning uchun da’vo jarayonlarini real vaqt rejimida nazorat qilish, shubhali arizalarni avtomatik aniqlovchi sun’iy intellekt tizimlarini joriy qilish va blokcheyn asosida shartnomalarni shaffof yuritish muhim hisoblanadi.

4. Qayta sug‘urtani kuchaytirish kompaniyalar uchun strategik zaruratdir. Yuqori xavfli hududlarda majburiyatlarning bir qismini xalqaro va mahalliy qayta sug‘urtachilarga o‘tkazish orqali kompaniya moliyaviy barqarorligini ta’minlash mumkin. Bunda “excess of loss” va “quota share” kabi mexanizmlardan foydalanish, risklarni geografik va tarmoq kesimida diversifikatsiyalash samarali natija beradi.

5. Hududlar kesimida ko‘rsatkichlarning nomutanosibligi sug‘urta bozorida hududiy muvozanatning buzilganini ko‘rsatadi. Toshkent shahri mukofotlarning qariyb 90 foizini

shakllantirayotgan bo‘lsa, boshqa hududlarning ulushi juda past. Bu esa bozorda konsentratsiya riskini keltirib chiqaradi. Shuning uchun sug‘urta kompaniyalari mintaqaviy filiallar faoliyatini kengaytirishi, marketing strategiyalarini hududlar bo‘yicha differensiallashtirishi zarur.

6. Yuqori risk guruhiga kiruvchi hududlar (Sirdaryo, Buxoro, Jizzax, Qoraqalpog‘iston, Qashqadaryo)da zararsizlik nisbati 40–55 % gacha yetgan bo‘lib, bu hududlarda tarif va anderrayting siyosatini qayta ko‘rib chiqish shart. Antifrodni kuchaytirish, da’vo jarayonlarini qat’iy nazorat qilish va qayta sug‘urtani keng joriy etish orqali bu hududlarda zararlarni kamaytirish mumkin.

7. O‘rta risk guruhidagi hududlar (Andijon, Namangan, Navoiy, Samarqand, Farg‘ona, Xorazm)da zarar nisbatan past (20–26 %), ammo barqarorlikni ta’minlash uchun risklarni diversifikatsiyalash zarur. Bu hududlarda ixtiyoriy sug‘urta segmentini kengaytirish va raqamli mahsulotlarni joriy etish orqali sug‘urta qamrovini oshirish mumkin.

8. Past risk guruhidagi hududlar (Toshkent sh., Toshkent viloyati, Surxondaryo) kompaniya uchun eng barqaror rentabellik manbai bo‘lib qolmoqda. Biroq ularning bozor ulushi juda katta bo‘lgani uchun sug‘urta portfelida haddan ortiq konsentratsiya riski mavjud. Shu bois, bu hududlarda o‘sishni sekinlashtirib, resurslarni yuqori riskli hududlarni muvozanatlashtirishga yo‘naltirish lozim.

9. Raqamlashtirish jarayonlari sug‘urta mukofotlari va to‘lovlarida keskin o‘sishni ta’minladi. 2021-yilda atigi 931 mln so‘m mukofot yig‘ilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 1,27 trln so‘mga yetgan. Shu bilan birga, to‘lovlar ham 76 mln so‘mdan 156,8 mlrd so‘mga oshgan. Bu jarayon sug‘urta kompaniyalaridan risklarni yanada samarali boshqarishni, antifrod mexanizmlarini kuchaytirishni va qayta sug‘urtaga tayangan holda moliyaviy barqarorlikni saqlashni talab qiladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Jones, M., & Brown, T. (2020). *AI in Insurance: The Role of Machine Learning in Policy Personalization*. Journal of Insurance Innovation, 8(2), 120-135.

2. McKinsey & Company. (2021). *Digital Insurance: Capturing the Opportunity in a Changing Market*. McKinsey Insurance Practice. Retrieved from [McKinsey website].

3. PwC. (2019). *Global InsurTech Report: Transforming Insurance through Digital Innovation*. PwC Global Report. Retrieved from [PwC website].

4. Smith, A. (2021). *Blockchain for Claims Management: Enhancing Transparency and Trust*. Journal of Digital Finance, 15(3), 211-230.

5. World Bank. (2020). *Digital Financial Inclusion: Leveraging Technology for Economic Growth in Emerging Markets*. World Bank Policy Paper. Retrieved from [World Bank website].

6. Zhang, L. (2022). *Regulatory Challenges in the Digital Insurance Landscape*. Journal of Financial Regulation and Compliance, 29(1), 55-78.